
"Farg'ona haqiqati": Bizning suhbat

Shuhrat MAMAJONOV,

"Urug'chilikni rivojlantirish markazi" DUK Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i

SIFATLI VA SERHOSIL URUG' NAVLARI

fermer xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirish va daromad manbaalarini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega

Mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan qishloq xo'jaligi tarmoqlariga zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etish, innovatsion g'oyalarni hayotga tatbiq etish borasida bir qator Farmon va qarorlar qabul qilindi. 2018 yil 8 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasining "Urug'chilik to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingani esa faoliyatimizni bugungi kun talablari asosida rivojlantirishda muhim dasturilamal bo'lmoqda.

Hayotbaxsh islohotlar samarasи sifatida "Urug'chilikni rivojlantirish markazi" DUK Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasi tashkil etildi. Shu asosda ilgari alohida-alohida, tarqoq holda faoliyat ko'rsatgan turli urug'chilik markazlari birlashtirildi. Natijada boshqarmamiz mutaxassislari tomonidan viloyatimizda paxta-g'alla ekinlari urug'chiligi sohasida tender tanlovida g'olib chiqqan fermer xo'jaliklari tomonidan olib borilayotgan barcha agrotexnik tadbirlar yuzasidan monitoring o'tkazib borilishi ta'minlanyapti.

Hozirgi kunda viloyatimizda paxtachilik sohasida 264 ta, g'allachilik yo'nalishida 341 ta urug'chilik yetishtirish maqomiga erishgan fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatyapti.

Ayni paytda "Urug'chilikni rivojlantirish markazi" DUK Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasi tasarrufida Quva tumani birlamchi elita urug'chiligi laboratoriysi hamda Beshariq, Buvayda, Toshloq va Oltiariq tumanlarida elita urug'chiligi laboratoriyalari faoliyat ko'rsatmoqda. Bu laboratoriyalarda mutaxassislarimiz tomonidan mamlakatimiz olimlari tomonidan yaratilgan yangi navlarning hosildorligi, navga xos bo'lgan tipikligi, morfobiologik xususiyatlari va xo'jalik uchun qimmatli bo'lgan belgilari uch yil davomida tajriba maydonlarida atroflicha o'rjaniladi. Shu asosda O'zbekiston Respublikasi "Urug'chilikni rivojlantirish markazi"ga xulosalar beriladi.

Quva tumani birlamchi elita urug'chiligi laboratoriysi moddiy-texnik bazasi zamonaviy mezonlar asosida yaxshilanib, 5 ta shtat birligi ajratildi. Hozirgi kunda ushbu laboratoriya mutaxassislari tomonidan 4-6 ta navlar bo'yicha o'rjanish ishlari olib borilyapti. Bu yildan boshlab laboratoriya mutaxassislari paxta navlariga qo'shimcha ravishda g'alla navlarini o'rjanish borasida ham tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqdalar.

Beshariq, Buvayda, Toshloq va Oltiariq elita urug'chiligi laboratoriyalari esa asosan 1 ta paxta navi bo'yicha ilmiy-amaliy tajriba ishlari olib boriladi. Shuningdek, mazkur laboratoriylar mutaxassislari zimmasiga poliz va sabzavot urug'chiligi seleksiyasini rivojlantirish vazifasi ham yuklangan.